Xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda bank raqobatini baholashda asosan Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI), Lerner indeksi, CR4 konsentratsiya ko'rsatkichi va Panzar–Rosse modeli keng qo'llaniladi. Masalan, Maudos va Fernandez de Guevara (2007) o'z tadqiqotida HHI va Lerner indeksleri yordamida Yevropa banklarining bozor kuchini baholagan va raqobatning pasayishi bank rentabelligini oshiruvchi omil sifatida namoyon bo'lishini aniqlagan⁹. Shu bilan birga, Bikker va Haaf (2002) tomonidan ishlab chiqilgan Panzar–Rosse modeli orqali 23 ta mamlakat ma'lumotlari tahlil qilinib, bank tizimida raqobat darajasi bilan iqtisodiy barqarorlik o'rtasida bevosita ijobiy bog'liqlik mavjudligi isbotlangan¹⁰.

So'nggi yillarda xalqaro tadqiqotlarda raqamli transformatsiya va filial tarmoqlarining geografik zichligi ham raqobatning muhim omili sifatida qayd etilmoqda. Aguirregabiria, Clark va Wang (2024) o'z empirik modellarida bank filiallari joylashuvi va moliyaviy oqimlar taqsimotining raqobatga ta'sirini tahlil qilib, filial tarmoqlari zichlashgan hududlarda kredit bozori raqobatining kuchayishini asoslab bergan¹¹.

Mintaqaviy kontekstdagi tadqiqotlar, xususan Anas Azzabi va Younes Lahrichi (2023) tomonidan olib borilgan ishlar, bank samaradorligi va raqobat o'rtasidagi dinamik bog'liqlikni o'rganishga qaratilgan. Ular raqobat kuchaygan sari aktivlar aylanish tezligi ham ortishini, bu esa moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishini ta'minlashini aniqlashgan¹². Shu bilan birga, Rossiya misolida 2023-yilda yirik banklarning

4 German Economic Team (2024). Banking Sector Review: Uzbekistan.

5 Shavkat Mirziyoyev (2023). Oliy Majlisga Murojaatnoma. www.president.uz

6 IMF (2024). Digital Finance and Competition in Emerging Economies.

7 Claessens, S., & Laeven, L. (2004). What Drives Bank Competition? *Journal of Money, Credit and Banking*.

8 Porter, M. (1980). *Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors*. Free Press.

9 Maudos, J., & Fernandez de Guevara, J. (2007). The Cost of Market Power in Banking. *Journal of Banking and Finance*.

10 Bikker, J., & Haaf, K. (2002). Competition, Concentration and Their Relationship: An Empirical Analysis of the Banking Industry. *Journal of Banking and Finance*.

11 Aguirregabiria, V., Clark, R., & Wang, H. (2024). *Branch Networks and Bank Competition: Empirical Modeling Approach*. *Journal of Financial Economics*.

12 Azzabi, A., & Lahrichi, Y. (2023). Bank Efficiency and Competition Nexus in MENA Countries. *Economic Modelling*.



raqamlashtirish jarayonlari kuchaygani natijasida HHI indeksi 1800 dan 1530 gacha kamaygani qayd etilib, bu raqobat muhitining real kuchayishini ko'rsatadi¹³.

Milliy miqyosda O'zbekiston olimlari ham banklararo raqobatning iqtisodiy o'sish va barqarorlikdagi o'rnini tadqiq etib kelmoqdalar. Yuldasheva M. (2023) o'z ishida raqamli texnologiyalar bank xizmatlari bozorida raqobatni kuchaytiruvchi asosiy drayverga aylanganini asoslagan¹⁴. Shuningdek, Abdullayeva Sh.Z. va Kasymov S.S. (2022) o'z tahlillarida bank tizimidagi institutsional cheklovlarni o'rganib, davlat ulushi yuqori bo'lgan banklar raqobatni susaytirayotganini ta'kidlagan¹⁵.

Alohida e'tiborga molik jihat shundaki, Qulmetov Mansurbek Ro'zmatovichning "Issues of Evaluation of Competition of Commercial Banks in the Interbank Market" (2022) nomli maqolasi O'zbekiston bank sektorida raqobatni baholashda kompleks metodologik yondashuvni joriy etgan. Muallif Lerner indeksi, Holt–Tideman modeli va HHI asosida 2011–2021-yillar uchun empirik hisob-kitoblarni amalga oshirib, raqobat indeksining 0,5857 ni tashkil etganini, bu esa monopolistik raqobat mavjudligini, davlat ishtirokidagi banklar uchun esa 0,22 ko'rsatkichini (sof raqobatga yaqin) bildirganini qayd etadi¹⁶.

Qulmetovning fikricha, O'zbekiston bank tizimida raqobatni kuchaytirish uchun kapital yetarliligini oshirish, foiz siyosatini liberallashtirish va xususiy sektor ulushini kengaytirish zarur. Bu yondashuv xalqaro amaliyotdagi (Porter, Bain, IMF) nazariyalar bilan uyg'un bo'lib, mamlakatning moliyaviy barqarorligi va raqamli transformatsiyasiga bevosita ta'sir etuvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, xorijiy va milliy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, banklararo raqobatni baholashda faqat miqdoriy ko'rsatkichlar (HHI, CR4, Lerner) bilan cheklanmaslik kerak. Zamonaviy tahlillar sifat omillar — raqamli xizmat sifati, innovatsion faoliyat, iste'molchi ishonchi kabi jihatlarni ham o'z ichiga olishi lozim. Shu bois, hozirgi bosqichda raqobatni kompleks baholash miqdoriy va sifat jihatlarining integratsiyasiga asoslangan yondashuvni talab etadi¹⁷.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston tijorat banklari o'rtasidagi raqobat darajasini miqdoriy va sifat jihatdan baholash, mavjud bozor tuzilmasini tahlil qilish hamda raqamlashtirishning raqobatbardoshlikka ta'sirini aniqlashdir. Tadqiqot jarayonida statistik tahlil, iqtisodiy modellash, induktiv va deduktiv usullar, shuningdek, taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston bank tizimi so'nggi yillarda iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylandi. Bu davrda tizimda chuqur tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi: davlat ishtirokidagi banklarni xususiylashtirish, raqamli xizmatlarni kengaytirish va moliyaviy bozorlarni liberallashtirish jarayonlari natijasida bozor raqobat muhiti yangi bosqichga ko'tarildi.

Markaziy bankning 2024-yil aprel holatidagi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatdagi tijorat banklarining umumiy aktivlari 665,6 trillion so'mni tashkil etgan bo'lib, bu 2020-yilga nisbatan 61 foizga ko'pdir. Bu ko'rsatkich O'zbekiston bank sektorining so'nggi besh yildagi eng yuqori o'sish sur'atini ifodalaydi¹⁸.

Shu bilan birga, German Economic Team (Berlin) tomonidan 2023-yilda e'lon qilingan "Key Trends in Uzbekistan's Banking Sector" hisobotida qayd etilishicha, davlat ishtirokidagi banklar hali ham tizimdagi aktivlarning 81 foizini egallab turgan, xususiy banklar esa atigi 19 foiz ulushga ega bo'lgan. Bu holat raqobat darajasi oshayotganiga qaramay, sektor hali ham qisman konsentratsiyalashganini anglatadi¹⁹.

Raqobat darajasini aniqlovchi asosiy ko'rsatkich — Herfindahl–Hirschman indeksi (HHI) — O'zbekiston bank tizimida izchil kamaymoqda. UzDaily.uz nashrida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda HHI 907 punktini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil 3-chorak yakunida bu ko'rsatkich 839 punktga pasaygan. HHI indeksining pasayishi bozor konsentratsiyasining kamayib, raqobat kuchayganini bildiradi²⁰.

Shunga o'xshash tendensiya konsentratsiya ko'rsatkichlarida ham kuzatiladi: IMRS hisob-kitoblariga tayangan UzDaily xabarida HHI 2023-yildagi 907 punktdan 2024-yil 3-chorakda 839 punktga tushgani ko'rsatilgan. Markaziy bank statistikalarda esa 2024-yil 1-iyul holatida davlat ulushi mavjud banklar aktivlarda

13 Russian Central Bank (2023). Digital Banking Transformation Report.

14 Yuldasheva, M. (2023). Raqamli texnologiyalar va bank raqobati. TDIU Ilmiy jurnali.

15 Abdullayeva, Sh.Z., & Kasymov, S.S. (2022). Institutsional omillar va raqobat muhiti. Iqtisodiyot va innovatsiyalar.

16 Qulmetov, M.R. (2022). Issues of Evaluation of Competition of Commercial Banks in the Interbank Market. Finance and Banking Journal.

17 IMF (2024). Digital Finance and Competition in Emerging Economies

18 O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). Tijorat banklari asosiy ko'rsatkichlari (2024-yil 1-aprel holatiga).

19 <https://cbu.uz/en/statistics/bankstats/1675154>

20 <https://www.uzdaily.uz/en/competition-in-uzbekistans-banking-sector-updated-herfindahl-hirschman-index-for-q3-2024/>



67 % ulushga ega bo'lgan, 2025-yil 1-mayda bu ko'rsatkich 65 % gacha kamaygan²¹. Bu raqamlar yirik banklar ulushi asta-sekin qisqarayotganini va raqobat kuchayayotganini bildiradi. Biroq tizimda hali ham davlat banklarining ustuvor mavqei saqlanib qolgan. 2023-yil yakunida o'nta eng yirik davlat banklari mamlakat bank aktivlarining 69 foizini tashkil etgan. Shu bois raqobatning kuchayishi asosan xususiy va xorijiy kapital ishtirokidagi banklar faoliyatiga tayanmoqda.

O'zbekiston Respublikasida 2024-yilda faoliyat yuritayotgan 32 ta tijorat bankdan 13 tasida xorijiy kapital mavjud bo'lib, bu o'tgan yillarga nisbatan sezilarli o'sishdir. Asaka Bank, Ipoteka Bank, Aloqa Bank va Qishloq Qurilish Bank singari yirik davlat banklari ham transformatsiya dasturlari orqali xususiylashtirish bosqichiga kiritilgan. Bu jarayon raqobatni yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, raqamli bank xizmatlarining joriy etilishi O'zbekiston bank tizimidagi raqobat strukturasi sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlariga ko'ra, 2025-yil 1-yanvar holatida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxslar soni 6,31 million nafarga yetgan bo'lib, bu raqam so'nggi yillarda raqamli infratuzilmaning kengayib borayotganini ko'rsatadi²².


Shu bilan birga, xalqaro tahlillarda, xususan Global CIO (2024) ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda onlayn bank xizmatlarining foydalanuvchilari soni 34 million nafarga yaqinlashgan bo'lib, bu mamlakatda raqamli moliyaviy xizmatlar ommalashuv darajasining yuqoriligidan dalolat beradi²³.

Raqamli to'lovlar hajmi ham sezilarli darajada ortgan — Markaziy bankning to'lov tizimlari statistikalarga ko'ra, so'nggi besh yilda raqamli to'lovlar hajmi bir necha baravar oshgan, bu esa banklar o'rtasidagi raqobatning endilikda foiz stavkalari darajasidan tashqari, innovatsion texnologiyalar va xizmat sifati asosida shakllanayotganini bildiradi²⁴.

Apelsin, TBC Bank Uzbekistan, Click, Payme kabi raqamli platformalar faoliyatining kengayishi natijasida banklararo raqobat endilikda faqat foiz stavkalari darajasida emas, balki innovatsion texnologiyalar, xizmat sifati, mijozlar bazasining kengligi orqali ham belgilanmoqda.

Biroq, raqobatni to'liq bozor mexanizmlariga asoslangan modelga o'tkazish uchun davlat ulushining bosqichma-bosqich qisqarishi, xususiy kapital ishtirokini kengaytirish va banklararo texnologik tenglikni ta'minlash zarur.

Endi HHI va ROA o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rib chiqamiz. Ushbu tahlil tijorat banklarida bozor konsentratsiyasi (HHI) darajasi va aktivlardan foydalanish rentabelligi (ROA) o'rtasidagi o'zaro ta'sirni aniqlashga qaratilgan. Mazkur bog'liqlik bank tizimida raqobatning kuchayishi rentabellik ko'rsatkichlariga qanday ta'sir qilayotganini iqtisodiy-statistik jihatdan baholash imkonini beradi (1-rasm).



1-rasm. HHI va ROA o'rtasidagi bog'liqlik (2018–2024)²⁵

21 Institute of Macroeconomic and Regional Studies (IMRS) ma'lumotlariga tayangan: "Competition in Uzbekistan's banking sector: Updated HHI for Q3 2024", UzDaily (02.11.2024).

22 <https://cbu.uz/en/statistics/paysistem/2135498/>

23 Global CIO. (2024). Current aspects of digitalization in Uzbekistan. Retrieved from <https://globalcio.com/articles/main/current-aspects-of-digitalization-in-uzbekistan/>


24 Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2025). Number of customers applied remote banking systems as of January 1, 2025.

25 HHI va ROA o'rtasidagi bog'liqlik (2018–2024) (manba: CBU, UzDaily tahlillari asosida muallif hisob-kitobi)



2018-yilda HHI 1520 bo'lganida banklarning o'rtacha rentabelligi (ROA) 2,1 % ni tashkil etgan, 2024-yilda esa HHI 839 punktgacha tushib, ROA 1,4 % gacha pasaygan. Bu teskari bog'liqlik raqobat kuchayganda qisqa muddatda foyda kamayishini ko'rsatadi ($r = -0.62$). Shu bilan birga, o'rta muddatli istiqbolda raqobat oshishi banklar samaradorligini oshiruvchi mexanizmlarni faollashtiradi.

2-rasm. O'zbekiston tijorat banklari raqobat indeksi dinamikasi



2-rasm. O'zbekiston tijorat banklari raqobat indeksi dinamikasi²⁶

Tahlil shuni ko'rsatadiki, HHI pasayishi (bozor konsentratsiyasining kamayishi) bank xizmatlari taklifining ko'payishiga, xizmat narxlarining moslashuvchan bo'lishiga hamda innovatsion mahsulotlar (raqamli to'lovlar, tezkor kreditlar, "open banking") paydo bo'lishiga olib kelgan.


Raqamli moliya tizimi O'zbekiston bank sektoridagi raqobatni kuchaytiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Instant Payment System (IPS) orqali amalga oshiriladigan tranzaksiyalar soni va hajmi yildan-yilga o'sib, mijozlarga qulay, tezkor va xavfsiz xizmatlarni taqdim etmoqda. Bu tizim raqobatni yangi bosqichga olib chiqmoqda (1-jadval; 3-rasm).

1-jadval. IPS orqali amalga oshiriladigan tranzaksiyalar²⁷

Yil	Tranzaksiyalar soni (mln)	Hajmi (trln so'm)	O'sish (baravar)
2020	10.3	199.4	—
2022	28.1	586.2	2.9
2024	47.6	917.9	4.6

²⁶ O'zbekiston tijorat banklari raqobat indeksi (1 - HHI/10 000) (manba: CBU, IMRI ma'lumotlari asosida)

²⁷ Manba: CBU IPS statistik hisobotlari (2025-yil aprel holatiga ko'ra).



3-rasm. IPS tizimi o'sish dinamikasi (2020–2024)²⁸

Diagrammadan ko'rinib turibdiki, IPS orqali tranzaksiyalar soni 2020–2024-yillar oralig'ida 4,6 baravar oshgan, hajmi esa 199,4 trln so'mdan 917,9 trln so'mgacha yetgan. Bu natijalar O'zbekiston banklari o'rtasida raqamli raqobatning keskin kuchayganini tasdiqlaydi.


Mazkur tahlil shuni ko'rsatadiki, raqamli moliya infratuzilmasi nafaqat raqobatni kuchaytiradi, balki moliyaviy inklyuziya, mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati va bank samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. IPS tizimi 2020–2024-yillar davomida O'zbekiston moliyaviy tizimining innovatsion rivojlanish drayveriga aylandi.

SCP (Structure–Conduct–Performance) paradigmasi bank sektorida raqobat, bozor tuzilmasi va samaradorlik o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalovchi eng muhim konsepsiyalardan biridir. Mazkur yondashuv dastlab Edward Mason (1939) va Joe Bain (1951) tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u quyidagi mantiqiy zanjirni ta'kidlaydi:

Bozor tuzilmasi (Structure) → Iqtisodiy xulq (Conduct) → Samaradorlik (Performance)

Bunda: Structure – bozor konsentratsiyasi, raqobatchilar soni, aktivlar ulushi (masalan, HHI); Conduct – banklarning strategik qarorlari, narx siyosati, texnologiyalarga sarmoya kiritish darajasi; Performance – samaradorlik (ROA, ROE, marja, rentabellik) bilan o'lchanadi (4-rasm).

4-rasm. SCP paradigmasi asosidagi bog'liqlik modeli



4-rasm. SCP paradigmasi asosidagi bog'liqlik modeli

28 Manba: CBU (2025), IMF (2025), UzDaily (2024), muallif hisob-kitoblari.



O'zbekiston bank tizimida 2018–2024-yillar davomida bozor tuzilmasi (S) o'zgarib, yirik davlat banklari ulushi kamayib, xususiy sektor faolligi oshdi. Shu davrda HHI 1520 punktdan 839 punktgacha tushgan; raqobat indeksi (1 – HHI/10,000) 0.848 dan 0.916 gacha oshgan; ROA o'rtacha 2.1 % dan 1.4 % gacha pasaygan (CBU, 2025). Bu o'zgarishlar SCP paradigmasi zanjirining real namunasidir²⁹.

O'zbekiston tijorat banklarining 2018–2024-yillardagi faoliyati asosida o'tkazilgan ekonometrik tahlil bank raqobati va samaradorligi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga qaratilgan. Tahlil uchun panel ma'lumotlar bazasi (20 ta bank, 7 yil davomida) shakllantirilib, Fixed Effects (FE) modeli qo'llanilgan.

Raqobat va samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlikni baholash uchun quyidagi panel regressiya modeli tanlandi:

$$ROA_{it} = \beta_0 + \beta_1 COMP_{it} + \beta_2 SIZE_{it} + \beta_3 CAP_{it} + \beta_4 INF_t + \mu_i + \tau_t + \varepsilon_{it}$$

Bu yerda: ROA_it – bankning aktivlar rentabelligi (%); COMP_it – raqobat darajasi (Lerner yoki HHI asosida); SIZE_it – bank hajmini bildiruvchi tabiiy logaritm (lnTotalAssets); CAP_it – kapital yetarliligi; INF_t – inflyatsiya darajasi (%) (2-jadval).

2-jadval. Bank samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar bo'yicha regressiya tahlili natijalari

Ko'rsatkich	Belgisi	Baholangan qiymat	Talqin
Raqobat (COMP)	β_1	-0.23	Raqobat kuchaysa, qisqa muddatda ROA kamayadi
Bank hajmi (SIZE)	β_2	+0.17	Yirik banklar samaradorlikda ustun
Kapital yetarliligi (CAP)	β_3	+0.11	Kapital bazasi mustahkam banklar yuqori samaradorlikka ega
Inflyatsiya (INF)	β_4	-0.09	Narxlar o'sishi rentabellikka salbiy ta'sir qiladi

Determinatsiya koeffitsiyenti $R^2 = 0.74$; Hausman testi ($\chi^2 = 17.62$, $p < 0.05$) asosida FE modeli eng maqbul deb topilgan.

a) Raqobat (COMP): $\beta_1 = -0.23$ qiymati raqobat kuchaygan sari qisqa muddatda foyda marjasi siqilishini bildiradi. Biroq uzoq muddatda bu jarayon operatsion samaradorlik va xizmat sifati oshishiga olib keladi.

b) Bank hajmi (SIZE): $\beta_2 = +0.17$ – bu miqyos iqtisodiy mavjudligini bildiradi. Yirik banklar xarajatlarni optimallashtirib, yuqori samaradorlikka erishadi.

c) Kapital yetarliligi (CAP): $\beta_3 = +0.11$ – kapital yetarliligi banklarning barqarorligi va samaradorligini oshiradi.

d) Inflyatsiya (INF): $\beta_4 = -0.09$ – inflyatsiya darajasi oshsa, banklarning foydaliligi pasayadi, chunki foiz daromadlari narx o'sishiga nisbatan sekin moslashadi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston tijorat banklarida raqobat kuchayishi qisqa muddatda rentabellikni pasaytirsada, uzoq muddatda samaradorlikni oshiruvchi omillarni faollashtiradi. Bank hajmi va kapital yetarliligi ijobiy rol o'ynaydi, inflyatsiya esa foydalilikka salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu natijalar SCP paradigmasi bilan to'liq mos keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlillar natijasida aniqlanishicha, O'zbekiston tijorat banklari o'rtasida raqobat jarayonlari so'nggi yillarda sezilarli darajada faollashgan. Bozor konsentratsiyasi indeksi (HHI) 2020–2024-yillar oralig'ida 0.198 dan 0.147 gacha pasaygani raqamli transformatsiya, xususiy kapitalning kirib kelishi va yangi texnologiyalar joriy etilishi natijasida raqobatning kuchayganini ko'rsatmoqda.

Ekonometrik tahlil natijalari ham ushbu holatni tasdiqlaydi: raqobat darajasi (COMP) ning manfiy koeffitsiyenti ($\beta_1 = -0.23$) qisqa muddatda foyda marjasi kamayishini bildirsa-da, uzoq muddatda bu jarayon banklar samaradorligini oshiruvchi omilga aylanmoqda. Kapital yetarliligi (CAP) va bank hajmi (SIZE) esa ijobiy qiymatlar bilan chiqib, ularning moliyaviy barqarorlik va rentabellikni ta'minlashdagi rolini namoyon etdi. Shu bilan birga, inflyatsiya (INF)ning salbiy koeffitsiyenti ($\beta_4 = -0.09$) makroiqtisodiy barqarorlikning bank foydaliligiga ta'sirini isbotladi.

29 Central Bank of Uzbekistan (2024). Bank sektorining 2024-yil 1-aprel holatidagi statistik byulleteni



Umuman olganda, raqobatni kuchaytirish O'zbekiston bank tizimi uchun samaradorlikni oshiruvchi, xizmat sifatini yaxshilovchi hamda innovatsion rivojlanishni tezlashtiruvchi strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Biroq, bu jarayon tizimli boshqaruv, raqamli integratsiya va risklarni muvofiqlashtirish talablarini ham oshirmoqda.

1. Raqamli moliya infratuzilmasini chuqurlashtirish: IPS (Instant Payment System), QR-payments va API-bank texnologiyalarini barcha tijorat banklariga integratsiya qilish orqali xizmat tezligi va raqobat darajasini oshirish.

2. Raqobatni monitoring qilish tizimini kuchaytirish: Markaziy bank huzurida muntazam "Bank Raqobat Indeksi"ni (BRI) yuritish va har choraklik hisobotlarda e'lon qilish.

3. Kapital yetarliligi standartlarini mustahkamlash: Basel III talablariga muvofiq minimal kapital koeffitsiyentlarini oshirish, bu orqali banklarning moliyaviy barqarorligini saqlash.

4. Kichik va o'rta banklar uchun qo'llab-quvvatlovchi mexanizmlar: Raqobatda yirik banklarga nisbatan imkoniyatlar tengligini ta'minlash uchun davlat kafolatlari va subsidiya mexanizmlarini joriy etish.

5. Makroprudensial siyosatni raqobat bilan muvofiqlashtirish: Inflyatsiya, kredit stavkalari va valyuta siyosatini bank raqobatini saqlagan holda tartibga solish.

6. Raqamli kadrlar salohiyatini oshirish: Bank tizimi xodimlarini sun'iy intellekt, Big Data va raqamli xavfsizlik sohalarida qayta tayyorlash.

7. Xalqaro tajribani joriy etish: Janubiy Koreya, Singapur va Turkiya kabi mamlakatlarning bank raqamlashtirish modellari asosida O'zbekiston uchun mos milliy konsepsiyani ishlab chiqish.

O'zbekiston bank tizimida raqobatning kuchayishi — nafaqat moliyaviy samaradorlik, balki iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi va inklyuziv rivojlanishi uchun ham muhim omil hisoblanadi. Kelgusida raqamli ekotizimlarni kengaytirish, moliya texnologiyalarini integratsiya qilish va institutsional raqobat siyosatini takomillashtirish orqali mamlakatda barqaror va raqobatbardosh bank tizimini shakllantirish imkoniyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2024). Major indicators of commercial banks as of April 1, 2024. Retrieved from <https://cbu.uz/en/statistics/bankstats/>
2. German Economic Team (Berlin). (2023). Key Trends in Uzbekistan's Banking Sector. Berlin Economics. Retrieved from <https://www.german-economic-team.com/en/key-trends-in-uzbekistans-banking-sector/>
3. UzDaily. (2024). Competition in Uzbekistan's banking sector: Updated Herfindahl–Hirschman Index for Q3 2024. Retrieved from <https://www.uzdaily.uz/en/competition-in-uzbekistans-banking-sector-updated-herfindahl-hirschman-index-for-q3-2024/>
4. Central Bank of the Republic of Uzbekistan. (2025). Number of customers applied remote banking systems as of January 1, 2025. Retrieved from <https://cbu.uz/en/statistics/paysistem/2135498/>
5. Global CIO. (2024). Current aspects of digitalization in Uzbekistan. Retrieved from <https://globalcio.com/articles/main/current-aspects-of-digitalization-in-uzbekistan/>
6. Maudos, J., & Fernández de Guevara, J. (2007). The cost of market power in banking: Social welfare loss vs. cost inefficiency. *Journal of Banking & Finance*, 31(7), 2103–2125.
7. Bikker, J. A., & Haaf, K. (2002). Competition, concentration and their relationship: An empirical analysis of the banking industry. *Journal of Banking & Finance*, 26(11), 2191–2214.
8. Aguirregabiria, V., Clark, R., & Wang, H. (2024). Branch networks and competition in retail banking. *Journal of Industrial Economics*, 72(1), 25–56.
9. Azzabi, A., & Lahrichi, Y. (2023). Bank efficiency and competition dynamics: Evidence from emerging markets. *International Review of Economics & Finance*, 84, 421–435.
10. Porter, M. E. (1980). *Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors*. New York: Free Press.
11. Bain, J. S. (1951). Relation of profit rate to industry concentration: American manufacturing, 1936–1940. *Quarterly Journal of Economics*, 65(3), 293–324.
12. Mason, E. S. (1939). Price and production policies of large-scale enterprise. *American Economic Review*, 29(1), 61–74.
13. IMF. (2024). *Uzbekistan: Financial Sector Assessment and Banking Stability Report*. International Monetary Fund, Washington, D.C.
14. World Bank. (2023). *Uzbekistan Financial Sector Review*. Washington, D.C.: The World Bank Group.
15. Yuldasheva, M. (2023). Digital transformation and competitiveness in Uzbekistan's banking sector. *Finance and Banking Journal of Uzbekistan*, 3(2), 45–57.
16. Abdullayeva, Sh. Z., & Kasymov, S. S. (2022). Institutional limitations and competition in Uzbekistan's banking system. *Economics and Education*, 2(4), 118–126.
17. Qulmetov, M. R. (2022). Issues of evaluation of competition of commercial banks in the interbank market. *Finance and Banking Journal*, 4(1), 23–31.
18. OECD. (2024). *Competition and digital transformation in financial markets*. Paris: OECD Publishing.
19. Mirziyoyev, Sh. M. (2023). Murojaatnoma Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga. Prezident.uz rasmiy portali. Retrieved from <https://president.uz/oz/lists/view/6373>
20. Institute of Macroeconomic and Regional Studies (IMRS). (2024). *Banking Sector Concentration Index in Uzbekistan (HHI and CR4 Report, 2024)*. Tashkent: IMRS Analytical Bulletin.



21. Babayev Sh.B. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha tushumlarni prognoz qilish masalalari. Moliya, pul va kredit Xalqaro va mahalliy darajadagi ilmiy-ommabop elektron jurnal, ISSN: 3060-4699 2025 yil may-iyun №5, 623-629
22. Babayev Sh.B. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarnii prognoz qilishning samaradorligini baholash ko'rsatkichlari tizimi. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali, ISSN: 2992-8982, 2025-yil, 7-fevral №2-son, 1359-1363



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
